

RIVOJLANISHDA KECHIKISH BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA YIRIK MOTORIKA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Gasparyan Evelina Vladimirovna

Qo`qon davlat pedagogika instituti

Ta`lim va tarbiya nazariyasi va metodika yo`nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 6 oylikkacha bo'lgan bolalar bilan quyidagi mashqlar o'tkazilishi, u o'zining shaxsiy tajribasi asosida atrof-olam va tabiatda yuz beradigan hodisalarni tushunadi va anglay olishi maktabgacha yoshdagi bolalarning yirik motorikasini rivojlantirish haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: *qobiliyat, yirik motorika, munosabat, shakllantirish, rivojlantirish, jarayon, idrok, faoliyat.*

Bolalarni ijodiy qobiliyatlarini yanada takomillashtirishda qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan o'yinlarning o'рни katta. Bunday o'yinlar bolalarda murakkab idrokni shakllantiradi. Murakkab idrokda fazo tushunchasi mavjud. Fazoni idrok qilish voqelikdagi narsa va hodisalarning fazoda egallagan o'rnini, shaklini, miqdorini, bir-biriga nisbatan munosabatlar bilish jarayonidir. Idrok etishning bu turi bolalarda maktabgacha yoshning oxiriga kelib shakllana boshlaydi.

Bola dunyoga kelib qoq harakat faoliyati, jismoniy rivojlanishi shakllana boshlaydiastase kin o'z tanasini boshqaradi, tik holatda boshini dadil ushlab turadi, tizzasinibukib oyokdarig a tayana boshlaydi.

Quyidagilar 6 oylikkacha bo'lgan bolalarda yirik motorika rivojlanishining talablari hisoblanadi:

- gavdasini boshqara olish (muvozanat saqlashga qodir bo'lish);
- tana a'zolarini boshqara olish;
- maqsadli harakatlana olish.

Quyidagilar 6 oylikkacha bo'lgan bolalarda yirik motorikaning rivojlanish indikatorlari hisoblanadi:

- vertikal holatda boshini dadil ushlab turish;
- tizzasidan bukilgan oyoqlariga tayanish;
- qo'llari bilan ushlab turish;
- qo'ltig'idan ushlab turilganda, oyoqlarini bukmasdan to'g'ri turish;
- orqa tomoni bilan yotgan holatdan qorniga ag'darila olish;
- maqsadli tartibda o'z qo'llarini og'ziga yaqinlashtirish;
- orqa tomoni bilan yotgan holda bir oyog'ini ko'tarib, og'ziga tortish;
- gavdasi va qo'llari bilan buyumga intilish.

6 oylikkacha bo'lgan bolalar bilan quyidagi mashqlar o'tkazilishi lozim:

- bolani ikki qo'llab hamda qattiq yuzada vertikal holatda ushlab turish;
- bola qorinda yotganda, gavdasining holati ko'krak qafasini ko'tarib, boshini yuzadan balandda ushlab turish imkonini berishini ta'minlash;

- bolaning qo'llariga o'yinchoq ushlatib, uni qanday ushlab, og'ziga yaqinlashtirishini kuzatib turish;
- bolaning bir qo'lga shaqildoq ushlatib, uni boshqa qo'lga olishini rag'batlantirish;
- bolani orqa tomonida yotqizib, avval bir oyog'ini, keyin ikkinchi oyog'ini asta tortib ko'rish, bolaning oyog'ini qo'li tomon surib, og'zi tomon yo'naltirish;
- bolaga eng yaxshi ko'rgan o'yinchog'ini uzatib, uning qanday qilib o'yinchoqqa intilib, qo'llari va gavdasi bilan harakatlanishini kuzatish;
- o'yinchoqni bolaning oldiga qo'yib, gavdasi bilan o'yinchoqqa qarab harakatlanishga yo'naltirish.

Bolalarni bunday faol harakatlarini doimiy ravishda ota-onalar qo'llab quvvatlashlari lozim.

Qurish-yasash o'yinlari bolada buyum obrazini fazoviy ifodada tasvirlashni talab qiladi. O'yin jarayonida biror bir material yoki buyumning xajmi, katta-kichikligi, bir-biriga mosligi, fazoviy mo'ljallay olish ko'nikmasi rivojlanadi. Bolalarning sevimli mashg'uloti qum bilan uynash. Qum bolalarning uynashlari uchun eng kulay o'yin vositasi bo'lib hisoblanadi. Qumlar maxsus yashiklarda nam holatda saqlanadi. Bolalarni qum bilan o'ynashlari uchun bayroqchalar, o'yinchoklar tayyorlab kuyilishi kerak. Qum o'yinlari ham boshqa o'yinlar kabi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Jumladan, bola psixologiyasini tinchlantirish xususiyatiga ega, qo'l motorikasini rivojlantiradi, ijodiy hayol va tasavvurlarini boyitadi, ijodkorligini shakllantiradi. Suv bilan uynaladigan o'yinlar ham bolaning sevimli o'yinlaridan biri

Ta'lim jarayonida tarbiyachining diqqat markazida kichkintoyning individual va ijtimoiy-hissiy ehtiyojlarini qondirish nazarda tutilishi lozim. Mashg'ulot va o'yinlar uchun tanlangan didaktik materiallar bolada motorika (harakat) va sensorika (sezgi)ni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Bolaning mustaqil harakat qilishi natijasida uning ichki kuchlari erkin bo'ladi va asta-sekin kattalar yordamisiz ham o'zi bajara olish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Montessori materiallari bola uchun dunyoni, atrof-olamni anglash kaliti hisoblanib, dunyo haqidagi tasavvurlarini tizimga solishga, uning xaotik va atrof-olam to'g'risidagi bilimlarini kengayishiga sabab bo'ladi. Bular yordamida bolada dunyoqarash rivojlanadi. U o'zining shaxsiy tajribasi asosida atrof-olam va tabiatda yuz beradigan hodisalarni tushunadi va anglay oladi. Demak, bolalarda sezgi va mayda qo'l harakatini rivojlantirish orqali maktab ta'limiga tayyorlash imkoniyatlari yanada kengayadi degan xulosaga kelish mumkin.

Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik-bola sog'liqni saqlash malakalarini namoyon qiladi, xavfsiz sog'lom taom va hayot xavfsizligi qoidalari haqida tushunchaga ega bo'ladi.

3-4 yoshli bola mazkur rivojlanish sohasining kichik sohalari bo'yicha quyidagi kutilayotgan natijalarga erishadilar:

yirik motorika:

-turli usullar bilan yuradi, kolonna doira bo'lib saflana oladi; -uch oyoqli velosipedda uchadi. mayda motorika:

-halqaga arqonni kirgizadi, mayda predmetlarni ma'lum bir tartibda taxlaydi;

-buyumlarni bir idishdan ikkinchisiga joylashtiradi.

sensomotorika:

-katta ko'ptoklarni masofaga, ikki qo'l bilan, o'tirib, turib irg'itadi; -silliq va notekis teksturaning farqiga boradi, ta'mni aniqlaydi; sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik:

-mustaqil qo'li, yuzini yuvadi, tishini tozalaydi, sochiqdan foydalanadi; -taroq va dastro'mol yoki salftkadan foydalanadi, ovqat vaqtida mustaqil qoshiq bilan foydalanadi;

-mustaqil hojatxonaga boradi, xavfli bo'ladigan predmetlarni farqiga boradi.

4-5 yoshli bolaning mazkur sohaning to'rttala kichik sohasi bo'yicha kutilayotgan natijalari:

yirik motorika:

-koptokni yerga o'ng va chap qo'li bilan galma-gal uradi; -matrap bilan mayda uchayotgan, suzayotgan predmetlarni tutadi; -sovun ko'piklarini uchiradi. mayda motorika:

-mustaqil tugmachalarni qadaydi va yechadi, kiyimi poyavzali ilgaklarini o'zi taqadi;

-na'muna asosida ipga yirik, o'rta va mayda munchoqlarni teradi;

Kichkintoyga bolalar uchun mo'ljallangan qaychi, qalamsimon yelim, rangli qog'oz va karton xarid qiling. Uni turli narsalarni yasashga o'rgating. Suratlarini qirqib, yopishtiring, qor uchqunlarini yasang va hokazo. Bu bolaning nafaqat motorikasini, balki tasavvur qilish qobiliyati va ijodiy tafakkurini ham rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1, O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" // Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: "Sharq" nashriyot matbaa-konserni. 1997-yil.

2, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisida"gi Qonuni // Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: "Sharq" nashriyot matbaa-konserni. 1997-yil.

3. Tulenova X.B., "Ta'lim jarayonida harakatli o'yinlarning ahamiyati" ilmiy maqola., "Umumta'lim maktab, akademik litsey kasb hunar kollejlarda jismoniy tarbiyaning dolzarb muammolari" To'plami. Toshkent 2011-yil.